

IJTIMOIIY HIMOIYAGA MUHTOIJ INSONLARGA – PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI

Rasulov Muhridin Komiljon o'g'li

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi

Annotatsiya: Psixolog insonlar-ni tinglaydi, empatiya orqali munosabatda bo'ladi. Insonlarni boricha qabul qiladi. Xatolarini ko'rsatadi, hayotini yaxshi tomonga o'zgarishiga yordam beradi. Maqsadlari sari ruhlantiradi. "Inson" markazlari psixologlari insonlarga stress va depressiya holatlaridan chiqishda ko'maklashadi, salbiy his-tuyg'ularni ijobiy holatga o'zgartirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhofaza psixologik yordam, depressiya, agressiya, empatiya.

KIRISH

Bosh qomusimizda davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalari turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'rishi belgilangan. O'tgan qisqa vaqt davomida ushbu Konstitusiyaviy normani hayotimizga to'laonli tatbiq etishga qartilgan amaliy chora-tadbirlar boshlab yuborildi. Xususan, Prezidentning 1 iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi.

Jumladan, kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko'makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta'minlash hamda ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og'ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qartiladi.

Aholiga individual yondashuv asosida ijtimoiy ko'mak ko'rsatishda hech shubhasiz aytish mumkinki, so'nggi yillarda yaratilgan "ayollar", "yoshlar", "temir daftar" kabi daftarlarning o'rni beqiyos. O'z navbatida, mahallalarda tashkil etilgan hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari faoliyati esa, ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, Farmonda aholini ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qamrab olishni kengaytirish, xavf guruhlariga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali ular og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini

olish va nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu markazlar har bir xonadon ahvolini o'rganib, oilalardagi haqiqiy holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ijtimoiy pasportlarini shakllantirish ishlarini amalga oshiradi.

Shuningdek, ehtiyojmand aholi bilan, shu jumladan, keys-menejment usulini qo'llagan holda samarali ish tashkil qilish, ulardan ijtimoiy xizmatlar va yordam olish bo'yicha buyurtmalar qabul qilish, zaruratga qarab buyurtmalarni mas'ul vazirlik va idoralarga yuborish, og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan oilalarni muntazam ravishda monitoring qilib borish, ular uchun ijtimoiy xizmat va yordamlarni tashkil etish ham markazning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji yuqori bo'lgan qatlamini manzilli aniqlash borasida yuqoridagi kabi tizimning joriy etilishi, fuqarolarimizga zarur yordam va ko'makni o'z vaqtida qo'rsatish orqali ortiqcha davlat byudjeti sarflanishining oldi olinishiga hamda bu orqali ko'proq aholiga manzilli yordam ko'rsatish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning jinoiy xatti-harakatlarga moyilligi jamiyat rivojlanishining dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur muammo insonning psixologik holati, ijtimoiy muhit ta'siri, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog'liq bo'lib, unga oid tadqiqotlar O'zbekiston psixologlari tomonidan ham olib borilgan. Shaxsning ijtimoiy jihatdan nochor holatda bo'lishi uning ruhiy izlanishlariga, ichki kechinmalariga ta'sir etib, natijada u turli noqonuniy yo'llarga murojaat qilishi mumkin. A. Abduqodirov (2018) ta'kidlaganidek, insonning ijtimoiy-huquqiy muhitga moslashishi uning psixologik barqarorligi bilan bevosita bog'liq. Agar shaxsda o'zini jamiyatga moslashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelsa, u o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun jinoiy yo'llarni tanlashi mumkin.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar qatoriga yetim bolalar, ishsizlar, kam ta'minlangan oilalar vakillari, nogironlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand boshqa toifalar kiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday shaxslar ko'pincha ruhiy bosim, stress, tushkunlik va befarqlik holatida bo'ladilar. O'zbekiston psixologlari orasida bu muammoga alohida e'tibor qaratgan mutaxassislardan biri Sh.

Jo'rayev (2020) bo'lib, u ijtimoiy nochorlik va jinoiy harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, bunday shaxslarning psixologik jihatdan yordamga muhtojligini qayd etgan. Uning fikriga ko'ra, bunday shaxslarning ongida jamiyat tomonidan rad etilish hissi shakllanadi, bu esa ularni jinoiy harakatlarga yetaklaydi.

Ijtimoiy himoya tizimi har bir jamiyatda muhim o'rin tutadi, chunki har bir insonning hayotida muhtojlik, yordamga ehtiyoj bor. Keksalar, nogironlar, kambag'allar, yolg'izlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar jamiyatning zaif qatlamlarini tashkil etadi.

Ushbu guruhlar bilan ishlash, ularning huquqlarini himoya qilish va yashash sharoitlarini yaxshilash – ijtimoiy ishning eng muhim vazifalaridan biridir. Ijtimoiy ishchilar nafaqat moddaning, balki ma'naviyatning ham muhimligini inobatga olishlari lozim. Islom dini, insoniyatning barcha ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy ehtiyojlarini o'z ichiga olgan eng qadimiy dinlardan biri sifatida, jamiyatdagi zaif qatlamlarga yordam berishni o'zgacha ahamiyatga ega deb biladi.

Qur'on va hadislar, ijtimoiy yordam va saxovatni muhim fazilatlar sifatida ko'rsatib, musulmonlarga mehr-oqibatli va sabrli bo'lishni targ'ib qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy himoya va yordam sohasida diniy qadriyatlarning o'rni katta, bu esa ijtimoiy ishchilarning samarali faoliyatini yanada kuchaytiradi. XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari – insonga, ayni paytda, jamiyatga Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar. Umuman, Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiya yonida yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar Manbai bo'lgan. Bu haqda dastlabki psixologik tasavvurlar makoni bo'lmish Hindiston, Xitoy, Yegipet, Vavilon, O'rta Osiyo, Gretsiyadan, shuningdek, jon (ruh) haqidagi kitobning muallifi Aristoteldan hamda temperament (mijoz) ta'limotining asoschisi Galen, Gippokrat va ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-mulohazalarini bildirib kelmoqda.

Prezidentimiz o'zining O'zbekistonning bugungi istiqbol va istiqbol yo'lini ifodalovchi boshqa qaror ma'ruzalari, asarlarida ham iqtisodiyot bilan ma'naviyat, inson ruhiyatining barkamolligi, hayotning o'zaro ajralmas, bir-birini to'ldiradigan, o'zaro ta'sir, aks ta'sir etadigan muhim omillari ekanligini, ayni paytda bugungi iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni, ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini ta'minlashning ijtimoiy zarurat ekanligi qayta-qayta ta'kidlaydi. Bu vazifalarning bajarilishi esa har bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillari qo'ygan talablar asosida etilishiga ham bog'liq ekanligi shabhasizdir. Zero, shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiya amaliy-tatbiqiy yo'nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko'pgina olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar hamda bildirib kelmoqdalar.

Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazish obyekti maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, maxsus o'quv yurti va oliy maktab, kollej talabalari, o'qituvchilar, ota-onalar va turli yoshdagi insonlar bo'lib hisoblanadi. Ularni alohida yoki guruh shaklda tadqiq qilish mumkin. Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmatning maqsadi:

a) psixoprofilaktika,

- b)psixologik maorif va ma`rifat,
- v)psixodiagnostika,
- g)psixik rivojlantirish va psixokorreksiya,
- d)psixologik konsultatsiya.

Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat metodlari turli tuman va quyidagi yo`nalishlarda bo`lishi mumkin:

- a) Turli yoshdagi aholiga ma`ruzalar turkumi, aholining psixologik madaniyatini o`stirish maqsadida trening mashg`ulotlari o`tkazish;
- b) ilmiy ommabop adabiyotlarni yaratish va ularni tarqatish;
- v) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar;
- g) psixodiagnostik tadqiqotlar o`tkazish, metodikalar ishlab chiqish (test savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqa);
- d) psixologik maslahat berish;
- e) psixologik konsiliumlar o`tkazish;
- j) ta`lim va tarbiya beruvchi dasturlardan foydalanib psixodrama, psixokorreksion treninglarni amalga oshirish;

z) psixologik tadqiqot obyekting psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o`quv dasturi, o`quv tarbiya rejalarini tahlil qilish va hokazolar. Hozirgi bosqichda Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat faoliyatining yo`nalishi: dolzarb va kelajak yo`nalishlari mavjud. Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmatda tadqiqot va ta`sir o`tkazish obyekti maktabgacha yoshdagi bolalar, o`quvchilar, maxsus o`quv yurti va oliy maktab, kollej talabalari, o`qituvchilar, otaonalar bo`lib hisoblanadi. Ularni alohida yoki guruhliy shaklda tadqiq qilish mumkin.

Dolzarb yo`nalish ijtimoiy qatlam o`rtasidagi tarbiyadagi qiyinchiliklar, ular xulqatvoridagi, muloqotdagi va shaxsi shakllanishidagi buzilishlar bilan bog`liq muammolarni hal qilishga qaratilgan. Kelajak yo`nalishi har bir shaxsning individualligini rivojlantirishga, jamiyatda yaratuvchanlik hayotiga psixologik tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan. Psixolog jamoa faoliyatiga har bir shaxs shaxsi garmonik rivojlanish imkoniyatlari haqida asosiy psixologik g`oyani olib kiradi. Ikki yo`nalish ham bir-biri bilan bog`liq. Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat jamiyatning zaruriy tarkibiy qismidir. Bu xizmatning zaruriyligi inson ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Har bir shaxsda hayotga ijodiy munosabat va individual xususiyatlarning taraqqiyotini ta`minlaganligini Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat to`g`ri tashkil etilgan deyish mumkin. Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmatni uch nuqtayi nazardan qarab chiqish mumkin: ilmiy nuqtayi nazar, tashviqot nuqtayi nazar va amaliy nuqtayi nazar. Ilmiy nuqtayi nazar, tashviqot nuqtayi nazar va amaliy nuqtayi nazarlarning birligi Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat predmetini tashkil etadi. Ilmiy nuqtayi nazar - Inson

ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmatning metodologik muammolarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu yo‘nalish ijrochilarining asosiy funksiyasi Jamiyat Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmatida ishning psixodiagnostik, psixokorreksion va rivojlantiruvchi metodlarini ishlab chiqish va nazariy asoslashga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishdan iborat. Tashviqot nuqtayi nazari xalq ta‘limi xodimlarining psixologik bilimlardan foydalanishini nazarda tutadi. Bu yo‘nalishda asosiy harakatlantiruvchi shaxslar bo‘lib pedagoglar, metodistlar va didaktlar maydonga chiqadi. Amaliy nuqtayi nazarni Inson ijtimoiy xizmatlar markazi psixologlari amalga oshiradilar. Ularning vazifasi aholini hayotga tayyorlash, shaxslarning o‘qish faoliyatini osonlashtirish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, shaxslarning qobiliyat va moyilliklarini aniqlash, rivojlantirish, shaxslar bilan hunarga, kasbga oid suhbat, maslahat ishlarini olib borish, turli xildagi “tarbiyasi qiyin” bolalar bilan ish olib borish kabi asosiy vazifani hal qilishdan iboratdir. Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmatning uchala vazifasi o‘zaro chambarchas bog‘liq, ularning birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslarga har tomonlama yordam berib kelinmoqda. Ijtimoiy himoya sohasi yurtimizda shiddat bilan rivojlanib borayotir.

Xususan, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi bunga yaqqol misoldir. Mamlakatimizning har bir tumanida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyat boshlagan. Bu markazlarning ochilishidan maqsad – ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni har tomonlama qo‘llabquvvatlash, ularning muammolarini bir joyda hal qilishdan iboratdir. “Inson” markaziga tashrif buyurgan har bir fuqaroning muammosini markazning o‘zida hal qilish imkoniyati mavjud. Markazning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan – og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan yoki tushib qolish xavfi bo‘lgan insonlarga Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat tashkil etib, ularning muammolarini, tushkun holatdan chiqarish uchun kognitiv terapiyalar qo‘llaniladi. Afsuski, vatandoshlarimizda “psixolog” va “psixologik yordam” to‘g‘risida noto‘g‘ri tushunchalar mavjuddir. “Psixolog – ruhiy holatida buzilishi bo‘lgan fuqarolar bilan shug‘ullanadi”, degan xalqimizda xato fikr qolib ketgan. Aslida, Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmatga aqlan sog‘lom kishilar, hayot sinovlari natijasida tushkunlik va stressga tushib qolgan insonlar ruhiy ko‘mak, dalda olishga muhtoj bo‘lganliklari uchun murojaat qilishadi.

Har kim hayotida turli xil sinovlar, ko‘ngilsiz voqealar natijasida tushkunlikka tushib qolib, hayotini izdan chiqarib yuborish holatlari uchrab turadi. Bunday holatda o‘zlaridagi xatolarni, kamchiliklarni qabul qila olmaydi. Oilalardagi kelishmovchiliklar, moddiy yetishmovchiliklar, bir-birlarini tushmasliklar, qo‘rquv, yaqin insonni yo‘qotishlar, hattoki kuchli hayajon ham inson ruhiyatida o‘zgarish-lar

sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda insonlar yaqin kishilariga aytib, xato qilib qo'yishlari ham bo'lib turadi. Muammolarini bir tomondan hal qilib, o'zidagi holatni o'zgartira olmaydilar. Bunday hollarda psixolog ko'magi zarur bo'ladi. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazida psixolog faoliyati yo'lga qo'yildi. Tumanlarda tashkil etilgan psixologlar 12 toifadagi shaxslarga, ya'ni o'zgalar parvarishiga muhtojlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari, kam ta'minlangan oilalar, yetim bolalar, otaonalik huquqidan mahrum etilmasdan, farzandlarini olib ketgan ota-onalar, voyaga yetmagan onalar va otalar, ota-onasi xorijiy davlatga ketgan, muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolar, texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favquloddagi vaziyatlardan jabrlangan shaxslarga xizmat ko'rsatadi.

Psixolog qabuliga kelgan fuqarolarning ma'lumotlari ulardagi psixologik holati, muammolari sir saqlanadi. Fuqarolar bilan individual, oila bilan ham shug'ullaniladi. Hozirgacha markazimizda fuqarolarga Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat ko'rsatilmoqda. Ularning hayotidagi muammolarini, yoshlikda qolib ketgan travmalari, oilaviy masalalari yuasidan psixologik konsultatsiyalar olib borildi.

Psixolog insonlar-ni tinglaydi, empatiya orqali munosabatda bo'ladi. Insonlarni boricha qabul qiladi. Xatolarini ko'rsatadi, hayotini yaxshi tomonga o'zgarishiga yordam beradi. Maqsadlari sari ruhlantiradi. "Inson" markazlari psixologlari insonlarga stress va depressiya holatlaridan chiqishda ko'maklashadi, salbiy his-tuyg'ularni ijobiy holatga o'zgartirishga yordam beradi. Shuningdek, ichki resurslarini aniqlab, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va iroda ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Bugungi kunda psixologlar tomonidan Respublika bo'ylab bir qancha ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga xizmat ko'rsatilmoqda.

XULOSA

Samarali yondashuvlar shaxsga yo'naltirilgan, professional va jamoaviy yordamni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv, nafaqat yordam berish, balki muhtojlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi, ularni jamiyatga qaytarish va ijtimoiy tizimda o'z o'rinlarini topishga yordam beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy ishchilarning muhtojlarga nisbatan yordam ko'rsatishdagi yondashuvlari va metodlari jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish va yordam sohasida yuqori natijalarga erishish uchun innovatsion yondashuvlar va jamiyatni yaxshilashga qaratilgan tizimli choralar zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.R.Barotov Ta'limda Inson ijtimoiy xizmatlar markazida psixologik xizmat. – Buxoro: BuxDU-2007Abduqodirov A. *Shaxsning ijtimoiy moslashuvi va*

huquqbuzarlikka moyilligi.– Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.

2. Jo‘rayev Sh. *Jinoyatchilik psixologiyasi va shaxsning huquqbuzarlikka moyillik omillari.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Rahimov B. *Oilaviy tarbiyaning shaxs shakllanishiga ta’siri: ijtimoiypsixologik yondashuv.* – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017.
4. Internet materiallari

